

## ILK O'SMIRLIK VA O'SPIRINLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Boboqulova Shaxlo  
Ikromova Omina  
Raxmatova Fotima  
*TerDPI talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'spirinlik davri 15-18 yoshlarni qamrab olishi, ularni 8-10-sinflarga to'g'ri kelishi, ularning xususiyatlari haqida ma'lumot berib o'tilgan. Kalit so'zlar: o'spirinlik, psixik rivojlanish, intensiv, jismoniy rivojlanish*

O'smirlikdan keyingi navbatdagi bosqichni o'spirinlik davri deb bir bosqich xisoblashimiz xam mumkin, lekin hozirgi ko'pchilik psixologlar klassifikatsiyasi bo'yicha ikki bosqichga ajratishimiz xam mumkin. Avval o'smirlikdan keyingi bosqichni o'smirlik, keyingisi ilk o'spirinlik yoki yigitlik davri deb aytilardi va 14 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan davrlarni qamrab olar edi. Hozir ko'pchilik psixologlar 15–18 yoshni qamrab oladigan davrni ilk o'spirinlik deb atashni maqul ko'rmoqdalar, bu umumta'lim maktabining 8–9 sinfidan boshlab, kasb–xunar kolleji va litseylarining 1–2–sinflariga, ya'ni 8–10 sinf yoshiga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchi jismonan baquvvat, o'qishni tugatgach mutsaqil mexnat qila oladigan, oliy maktabda o'zini sinab ko'radigan imkoniyatga ega bo'ladi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati – mexnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iborat. Ijtimoiy xayotda faol qatnashish, ta'lim xarakterining o'zgarishi, yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e'tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy xis–tuyg'uning vujudga kelishiga, bilimni o'zlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi

Xayotda o'z o'rnini topishga intilish kasb – xunar o'rganish, ixtisoslikni tanlash, itsiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuch-g'ayrat, shijoat, qaxramonlik ko'rsatishurinish, jamoat, jamiyat va tabiat xodisalariga romantik munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi.

Ilk o'spirinning psixik rivojlanishini xarakteratga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta'lim jarayoni qo'yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o'rtasidagi ziddiyatlardir. Turli qarama–qarshiliklar, ziddiyatlar o'spirinning axloqiy, aqliy, etsetik jixatdan tez o'sishi orqali bartaraf qilinadi.

Ilk o'spirinlik yoshidagi yetakchi omil yuqori sinf o'quvchisi faoliyatining xususiyati, moxiyati va mazmunidagi tub burilishdir. O'spirinlarda avvalo o'zini anglashdagi siljish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu xol shunchaki o'sishni bildirmaydi. Uspirinda o'zining ruxiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati xamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. Bu yosh-dagi oquvchilarning ozini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular avval, o'zlarining kuchli va zaif jixatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib kiliklarini aniqroq baxolash imkoniyatiga ega



bo'ladilar. O'spirin o'smirga karaganda o'z ma'naviyati va ruxiyatining xususiyatlarini to'larok tasavvur eta olsa xam, ularni oqilona baxolashda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Natijada u o'z xususiyatlariga ortiqcha baxo berib, manmanlik, takabburlik, kibrlanish illatiga duchor bo'ladi, sinf va pedagoglar jamoalarining a'zolariga g'ayritabiiy munosabatda bo'la boshlaydi. Shuningdek, ayrim o'spirinlar o'z xatti-xarakatlari, aqliy imkoniyatlari va qiziqishlariga past baxo beradilar va o'zlarini kamtarona tutishga intiladilar. O'smirlik yoshidagi boladan yana bir xususiyat-murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon xissi, o'z qadrqimmatini e'zozlash, sezish va faxmlashga moyillikdir. O'spirin xar bir ishda etakchi, birinchi bo'lish itsagi bilan yashaydi. Lekin xar doim xam uddasidan chiqa olmaydi. L.A.Umanskiy fikricha buning uchun o'spirin quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak.

a) axlokiy xislatlar – jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mexnatsevarlik;

b) irodaviy xislatlar – matonat, kat'iyat, mutsakillik, tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik;

v) emotsional xislatlar – xushchakchaklik, tetiklik, xazilkashlik va yangilikni xis etish, o'z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

O'spirinlarda mavjud bo'lgan yana bir muxim xislat ularda yuksak darajadagi do'stlik, urtoqlik, ulfatchilik, muxabbatning vujudga kelishidir. Shu sifatlarning qay darajada shakllanganligi tarbiyaviy ta'sir o'tkazish mezoni xisoblanadi.

O'spirin o'quvchilarda tabiat, san'at, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy xayot go'zalliklarini payqash, idrok qilish, sevish, ulardan ta'sirlanish, ma'naviy ozuqa olish xislatlari paydo bo'ladi. Ularning psixologiyasida mayin sado, yoqimli nido, qalbni to'lqinlantiradigan musiqa, nozik xis-tuyg'u, ezgulik xislari, mayllari kuchayadi.

O'spirinlik davri – o'spirinlik davrida o'quv faoliyatining murakkablashishi, ularning yangi jamoadatutgan o'rni ulardan ko'p narsa talab qiladi. O'spirinlarning maktab hayotida, oilada tutgan mavqeyi o'zgaradi, ya'ni o'zidan kichikanalarga nisbatan boshliq, tashkiotchi va tarbiyachi bo'lish talab qilinadi. Ular 18 yoshda kattalikka erishadi. Organizmning o'sishi to'xtaydi, "tinch" davr boshlanadi. Organizm tarkib topishi va organizm to'qimalarning takomillashishi nihoyasiga yetadi. Bu davrda ularning nerv sistemasi rivojlanadi va katta kishilarning miya po'stlog'I xususiyatiga asta-sekin yaqinlashadi. Bosh miya po'stlog'ining atroflarida nerv bog'lanishlarning soni ko'payadi. O'qish va mehnat qilish natijasida bosh miya yarim sharlarida analitik va intetik faoliyat rivojlanadi. Bu xolat tashqi ta'sirni aniq ajrata oladigan xususiyatni o'stiradi. Farq qilish harakteridagi tormozlanish vujudga keltiriladi. Bu davrga kelib o'qish mashg'ulotlari ancha murakkablashadi: bir qator yangi fanlar o'qitila boshlaydi, dars mazmuni kengayadi, murakkablashadi, bilim, hayot, amaliy ishlar olib boriladi, o'quv ishlab chiqarish jamoasida bo'ladi. Bu davrda nazorat bilimlar, amaliy ishlar bilan qo'shib o'rganiladi. O'quvchilardan materialni tushunish va uni hayotga tadbiq eta bilish talab etiladi. Bu o'quvchilar nazriyaga juda ham berilib, amaliy ishlarga ahamiyat bermaydilar. Ular ko'p fikr yuritadi, lekin o'z fikrlarini amalda sinab ko'rishdan qochadi. Ularning fikrlashida umumlashtirish, abstraksiya qilish ustun turadi. Shunga qaramay konkretlashtirish xususiyati past darajada bo'ladi.



Katta maktab yoshida shaxsning ma'naviy kuchlari intensive rivojlanadi, uning ma'naviy qiyofasi tarkib topadi, harakter hislatlari aniq bo'ladi, dunyoqarashi shakillanadi. Katta maktab yoshida shaxsning rivojlanishiga uning maktabda, oilada, ijtimoiy munosabatlar sistemasida tutayotgan mavqeining o'zgarishi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'quvchisi bo'lgan o'smirning faoliyati asosan o'qish faoliyatidan iborat bo'lib u maktab doirasi bilan cheklangandir. O'smirning ijtimoiy faoliyati ham odatda maktab ichida ro'y beradi. Katta yoshdagi o'quvchi esa boshqacharoq bo'ladi. Katta maktab yoshidagi o'quvchi o'smirdan farqli o'laroq o'zidagi oddiy, sezilarli ravishda namoyon bo'ladigan shaxsiy sifatlargina emas, balki ko'p qirralimunosabatlarni harakterlovchi ancha murakkab sifatlarni anglashga qodirdir. O'smir o'zicha "Men maktab jamoasining a'zosi" sifatida qandaymandeb savol beradi. Katta maktab yoshidagi o'quvchi esa o'ziga "men kelgusi mustaqil hayot uchun qandayman?, Men yaroqlimanmi?" – deb savol beradi.

Talabalik davri o'smirlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib 17-22 yoshni o'z ichiga oladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan harakterlanadi. Shu boisdan o'spirinlik davri shaxsining ijtimoiy va kasbiy mavqeini anglashdan boshlanadi. Mazkur pallada o'spirin o'zig xos ruxiy inqiroz tanglikni boshidan kechiradi, jumladan kattalarning har-xil ko'rinishdagi (unga yoqish yoki yoqmasligidan qat'iy nazar) rollarni tez suratlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jixatlariga ko'nika boshlaydi katta odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'liq ichki qarama – qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fanlarida to'plangan materiallar tahlilidan ko'rinadiki, talaba 17-19 yoshda ham o'z xulqi va bilish faoliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Imonova, M., & Tojiyeva, D. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 950-952.
2. Imonova, M., & Muhammadova, D. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING USTUVORLIGI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 907-912.
3. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
4. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
5. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
6. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.



7. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya–qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.
8. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.
9. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
10. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
11. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 447-453.
12. Imonova, M., & Xoltorayeva, M. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO 'RSATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO 'LLASHNING ZARURIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 903-906.
13. Imonova, M. (2024). AMALIYOTCHI PSIXOLOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ORNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 485-490.
14. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
15. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.
16. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 67-71.
17. Ashurova Sh. F. (2023) SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASVVURLARNING SHAKLLANISHI “Журнал Педагогики и психологии в современном образовании,3(1).
18. Ashurova Sh.F. (2022) A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL)
19. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI



SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

20. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

21. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 32-35.

22. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 418-421.

23. Ньматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.

24. Ne'Matullayeva, S. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.

25. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.

26. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. O 'zbekiston milliy universiteti xabarlar, 1(6).

27. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).

28. Ньматуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.

29. Kizi, N. S. K. (2022). Use of Game Therapy in Preschool Educational Organizations.

30. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati . Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43-46. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>

31. qizi Ne'matullayeva, S. X., & Ulug'bek qizi Abduqahhorova, M. (2023). BOLA SHAXSINING RIVOJIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO 'LLASH SHART-SHAROITLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 341-344.